

## MAKTABGACHA TA'LIM TIZIMIDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

**Sarbinaz Kalbaeva**

*Namangan viloyati Kosonsoy tumani  
Maktabgacha va maktab ta'limi bòlimiga qarashli  
41-sonli MTT tarbiyachisi*

**Annotatsiya.** *Ushbu maqola orqali o'qituvchilar maktabgacha ta'limda interfaol metodlarni qanday qo'llanilishi va ularni qanday tashkillash haqida ma'lumot oladilar.*

**Kalit so'zlar:** *interfaol, texnologiya, didaktik o'yinlar, aqliy qobiliyat, imkoniyatlar, metodlar, maktabgacha ta'lim, bolalar psixologiyasi, maktabgacha ta'lim, maktabgacha ta'lim yoshi, islohotlar.*

Maktabgacha ta'lim muassasalaridagi ta'lim –tarbiya jarayonida ilg'or pedagogik va axborot texnologiyalardan foydalanish, muassasalarni zamonaviy bilimlar bilan qurollangan tarbiyachilar bilan to'ldirish hamda ularda kasbiy malaka, faoliyatga nisbatan ijodiy yondashuv hissini qaror toptirish, uzluksiz ta'lim tizimida olib borilayotgan islohatlarning muhim yo'nalishlaridan biridir. Respublikamizda uzluksiz ta'lim tizimining barcha bosqichlariga, jumladan uning maktabgacha ta'lim bosqichiga e'tibor ortib borishi bilan bir qatorda maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabgacha yoshdagi ta'lim muassasalariga jalb etish ulushi kamayib borishi bu borada maqsadli tadqiqotlar olib borish mamalakatimiz ilmiy texnikaviy dasturi, ustuvor tadqiqotlar yo'nalishlarining bir qismi sifatida qaralishi mumkin. Zero, ta'kidlab o'tganimizdek, uzluksiz ta'lim bosqichlarining samarali ishlashi ma'lum darajasida maktabgacha ta'lim sifatiga bog'liq bu davrda bolaning dunyoqarashi, tasavvurlari shakllanib bo'ladi. uncha to'g'ri mazmun va yo'nalish berish pedagogika fani, ta'lim amaliyotining dolzarb muammosidir.

Maktabgacha ta'lim tizimi inson shakllanishidagi eng muhim bo'g'in, eng muhim davr hisoblanadi desak mubolag'a bo'lmaydi. Chunki mazkur ta'lim yoshi garchi inson hayotining qisqa fursati bo'lsada, bu davrda bola butun hayoti davomida o'rganganining ko'p foizini anglab yetadi va o'rganadi. Bu davr kelajak hayot uchun poydevor bo'lib xizmat qiladi. Maktabgacha ta'lim sohasi uzluksiz ta'lim tizimining birlamchi bo'g'ini hisoblanib, u har tomonlama sog'lom va barkamol shaxsni tarbiyalab, maktabga tayyorlashda g'oyat muhim ahamiyat kasb etadi. Shu bois, mamlakatimizda mazkur sohani yana-da taraqqiy ettirish, farzandlarimiz uchun barcha sharoitlarni yaratish yo'lida tizimli ishlar amalga oshirilmoqda. Shu bilan birga, bolalarni maktabgacha ta'lim muassasalariga qamrab olishda nafaqat davlat, balki nodavlat ta'lim muassasalarining hissasi sezilarli ortmoqda. Umuman, mazkur vazirlik tashkil etilgandan buyon, maktabgacha ta'lim muassasalari 5 211 tadan 8 104 taga, bolalarni qamrab olish darajasi 27,7%dan 61.8%ga oshgani diqqatga molik. Maktabgacha yoshdagi bolalarni har tomonlama rivojlanishini ta'minlashga qaratilgan

pedagogik jarayon sodda, yosh guruhlariga mos va rang-barang bo'lishi lozim. Ta'limtarbiyaviy ishlarni muvaffaqiyatli amalga oshirilishi maktabgacha ta'lim muassasalaridagi pedagogik jarayonni, har bir faoliyat turini to'g'ri tashkil etishga bog'liq bo'ladi. Mashg'ulotlarda bolalarning dunyoqarashlarini har tomonlama, ham jismoniy, ham ma'naviy, ham ruhiy shakllantirish va rivojlantirish masalalarini asosiy maqsad sifatida belgilab olish hozirgi pedagoglar oldida turgan asosiy vazifalardan sanaladi.

Interfaol o'rganish, shubha yo'qki, pedagogikaning qiziqarli, ijodiy, istiqbolli yo'nalishidir. Bu ularning psixologik imkoniyatlarini hisobga olgan holda maktabgacha yoshdagi bolalarning barcha imkoniyatlarini ro'yobga chiqarishga yordam beradi. Interaktiv texnologiyalardan foydalanish butun dunyo bo'ylab dunyodagi bolalar haqidagi bilim va taqdimotni boyitishga imkon beradi, tengdoshlar va kattalar bilan munosabatlar haqida bolalarni ijtimoiy munosabatlar tizimida faol munosabatda bo'lishga undaydi. Pedagogika sohasida bir nechta o'quv modellari farq qiladi: 1) Passiv – bola mashg'ulotning “ob’ekt” sifatida ishlaydi (tinglash va tomosha qilish) 2) faol – bola mashg'ulotning “mavzusi” sifatida ishlaydi (mustaqil ish, ijodiy vazifalar) 3) Interfaol – bola va o'qituvchining o'zaro ishlashi. Shuningdek, aytib joizki, bunday o'quv va ta'limning asosiy vazifalari: •Bolalar tashabbusi hamda o'zaro mustaqilligi rivojlanishi;

•Ma'lumotni o'rganish va mustaqil ravishda ishlab chiqarish qobiliyatini shakllantirish;

- Bolalar bilan integratsiyalashish;
- Bolalar va kattalar o'rtasidagi muloqotlar;
- Bolaning jamiyatga faol jalb qilish.

yoshdagi bolalar bilan ishlash uchun interfaol 78 ata 78 z 78 ic texnologiyalarni joriy etish asta-sekin amalga oshiriladigan jarayon, bu, albatta, maktabgacha yoshdagi bolalarning yosh xususiyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi. Bugun yurtimizdagi maktabgacha ta'lim muassasalarida bir necha interfaol texnologik mashg'ulotlardan foydalaniladi [5-8]. Misol uchun: “Kichik guruhlarda ishlash(Troika) “ ushbu ish texnologiyasining qo'llanilishi barcha bolalar asosida ishlash imkonini beradi.

Interfaol mashg'ulotlar faol o'quv usulining navlaridan biridir. Interfaol o'quv o'zaro ta'siri nafaqat tarbiyachi va maktabgacha yoshdgi bolajonlar o'rtasida amalga oshiriladi, bu holda barcha ko'plab tinglovchilar birgalikda ishlaydi (yoki guruhlarda ishlaydilar). Interfaol o'rganish usullari har doim o'zaro ta'sir, hamkorlik, qidirish, muloqot, odamlar yoki inson va axborot muhiti o'rtasidagi o'yindir. Darslarda faol va interfaol o'rganish usullaridan foydalangan holda o'qituvchi talabalar tomonidan o'qilgan materiallar miqdorini 90 foizgacha oshiradi. Maktabgacha ta'lim muassasasidagi interfaol texnologiyalar va o'quv usullariga asosan qo'llaniladi. Maktabgacha tarbiyachi uchun o'yin – bu asosiy faoliyat va u orqali bolaning yoshida zarur bo'lgan hamma narsani o'rgatishingiz mumkin.

Interfaol metodlar: Zamonaviy ta'limni tashkil etishga qo'yiladigan muhim talablardan biri. U orqali ortiqcha ruhiy va jismoniy kuch sarf etmagan holda, qisqa vaqt ichida yuksak natijalarga erishish demakdir. Qisqa vaqt orasida muayyan nazariy bilimlarni maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quvchilariga yetkazib berish, ularda ma'lum bir faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilishdir, shuningdek, o'quvchilarning faoliyatini nazorat qilish, ular tomonidan egallangan bilim, ko'nikma va malakalar darajasini baholash har bir o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat o'z navbatida ta'lim jarayoniga nisbatan yangicha yondashuvni talab etadi.

“KLAUSTER” METODI - Klaster (g'uncha, bog'lam) metodi pedagogik, didaktik strategiyaning muayyan shakli bo'lib, u o'quvchilarga ixtiyoriy muammolar xususida erkin, ochiq o'ylash va shaxsiy fikrlarni bemalol bayon etish uchun sharoit yaratishga yordam beradi. Mazkur metod turli xil g'oyalar o'rtasidagi aloqalar to'g'risida fikrlash imkoniyatini beruvchi tuzilmani aniqlashni talab etadi. “Klaster” metodi aniq ob'ektga yo'naltirilmagan fikrlash shakli sanaladi. Undan foydalanish inson miya faoliyatining ishlash tamoyili bilan bog'liq ravishda amalga oshadi. Ushbu metod muayyan mavzuning o'quvchilar tomonidan chuqur hamda puxta o'zlashtirilguniga qadar fikrlash faoliyatining bir maromda bo'lishini ta'minlashga xizmat qiladi. “Klaster” metodidan foydalanishda quyidagi shartlarga rioya qilish talab etiladi: Nimaniki o'ylagan bo'lsangiz, shuni qog'ozga yozing. Fikringizning sifati to'g'risida o'ylab o'tirmay, ularni shunchaki yozib boring. Belgilangan vaqt nihoyasiga yetmaguncha, yozishdan to'xtamang. Agar ma'lum muddat biror bir g'oyani o'ylay olmasangiz, u holda qog'ozga biror narsaning rasmini chiza boshlang. Bu harakatni yangi g'oya tug'ulguncha davom ettiring. Yozuvingizning orfografiyasi yoki boshqa jihatlariga e'tibor bermang. Muayyan tushuncha doirasida imkon qadar ko'proq yangi g'oyalarni ilgari surish hamda mazkur g'oyalar o'rtasidagi o'zaro aloqadorlikni, bog'liqlikni ko'rsatishga harakat qiling. G'oyalar yig'indisining sifati va ular o'rtasidagi aloqalarni ko'rsatishni cheklamang.

“TAJRIBA VOSITASIDA O'QITISH SIKLI” METODI Mazkur metod quyidagi 4 omil asosida quriladi: — reflektiv kuzatish; — abstrakt xulosalash; — faol tajriba olib borishga tayyorlanish; — aniq tajriba o'tkazish. Yuqorida qayd etilgan omillarning har biri muayyan g'oyaga asoslanadi. Chunonchi: O'quvchilar uchun mashqlar mazmunini tanqidiy o'rganish va ular ustida fikr yuritish imkoniyatini beruvchi sharoit yarat (reflektiv kuzatish); O'quvchilarga zarur nazariy bilimlarni ber; Muammo yuzasidan bildirilgan fikrlarni umumlashirish va xulosalash uchun sharoit yarat (abstrakt xulosalash); O'quvchilarga mukammal shakllangan, ayni vaqtda yana bir bor tekshirib chiqilishi lozim bo'lgan mashqlarni ishlab chiqish imkonini ber (faol tajriba olib borishga tayyorlanish); Yakuniy xulosani shaxsiy tajribadan o'tkaz va faoliyatda undan foydalan (aniq tajriba o'tkazish).

Xulosa qilib aytganda, bugungi kunda maktabgacha ta'lim tizimida qator islohotlar amalga oshirilmoqda, ularning bari bolalar va pedagoglar manfaatlari yo'lida xizmat qilishiga, shuningdek maktabgacha ta'lim sifatini yaxshilashga qaratilgan.

**FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:**

- [1]. Z. Nishanova, G. Alimova. Bolalar psixologiyasi va uni o'qitish metodikasi. O'quv qo'llanma. -T.: O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamg'armasi nashriyoti, 2006. 160 b.
- [2] A.V. Petrovskiy va boshqalar. Umumiy psixologiya. – T.: «O'qituvchi». – 1992.
- [3] M.G. Davletshin, Sh. Do'stmuhamedova, M. Mavlonov, S.To'ychiyeva. Yosh davrlari va pedagogik psixologiya (o'quv-metodik qo'llanma). TDPU, – T.: – 2004
- [4] Z. Nishanova. Bolalar psixodiagnostikasi. TDPU nashriyoti. Toshkent – 1998.
- [5] Запорожец А.В., Элконин Д.Б. Психология детей дошкольного возраста. – Москва. Просвещение. – 1964.